

**O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va Toshkent davlat  
agrar universiteti haqida**

*Saidova Dildora Normatovna ,*

*Iqtisod fanlari doktori, Toshkent davlat agrar universiteti, Federal davlat  
byudjeti oliy ta'lim muassasasi filiali "Astraxan davlat texnika universiteti  
Toshkent shahridagi, O'zbekiston*

*Nasulloyeva Malika Botir qizi*

*Talaba, Toskent davlat agrar universiteti , O'zbekiston*

**ABSTRAKT:** *Qishloq xo'jaligi rivojlanishi barobarida O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi, bugungi kundagi zamonaviy qishloq xo'jaligi va zamonaviy texnologiyalar , shuningdek, O'rta Osiyodagi yagona qishloq xo'jaligi universiteti ya'ni Toshkent davlat agrar universiteti haqida.*

**Kalit so'zlar:** *Qishloq xo'jaligi kooperativi, Sovet davri, fermer xo'jaliklari, tijorat banklari, sug'orish inflatuzilmasi, sug'oriladigan yerlar, sertifikatlash tizimi, yer uchaskalari, eksport hajmi, agrar universitet, innovatsiyalar.*

**KIRISH**

Qishloq xo'jaligi hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Biroq uning rivojlanishi va ixtisoslashuvi turli mamlakatlarda turlicha kechadi. Rivojlanayotgan davlatlarda qishloq xo'jaligi, xususan, dehqonchilik ko'proq ekstensiv holatda bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda u intensiv ko'rinishga ega. Shunga mos tarzda agroiqtisodiyotning samaradorligi, mehnat unumdorligi ham geografik jihatdan farqlanadi. Ayni vaqtda, qishloq xo'jaligining asosiy xususiyatlari ushbu tarmoqning rivojlanish va joylanishini belgilab beradi. Qishloq xo'jaligining kelajagi albatta agrar sohada o'qiydigan yoshlarning qo'lida ekan, bu sohani yana rivojlantirish uchun ularga samarali bilim olishlariga yordam berish zarur bo'ladi[1].

Qishloq xo'jaligi sohasi O'zbekistonda juda muhim ahamiyatga ega. Nimaga deganda, bizda aholining asosiy qismi, uning 50 foizdan ko'prog'i qishloq joylarda yashaydi. Shuning uchun aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi sohasi mamlakat uchun hayotiy ahamiyatga ega. U bizning ota-bobolarimiz azaldan shug'ullanib kelgan juda muhim soha. Mustaqillikkacha bo'lgan davrlar, 1990-91 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari tanqisligi katta bo'ldi. Sovetlar davrida nonni ham, boshqa mahsulotlarni ham kerak bo'lganda kartochka bilan olish darajasigacha yetib borgandik. Endi buni qanaqadir yo'llar bilan o'zgartirish kerak edi.

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlab qabul qilingan, xususan, "Yer to'g'risidagi (20 iyun 1990 yil) va boshqa qonunlarda va Birinchi Prezidentimiz farmonlarida qishloq xo'jaligidagi tub islohatlarni huquqiy va nazariy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-chaqiriq X sessiyasi (dekabr, 1997 yil) agrar va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish yuzasidan qator qonunlar qabul qildi. "Yer kodeksi", "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida". "Yer kadastrini to'g'risida"gi qonunlar qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. 2000-yilga kelib respublikada davlatga qarashli bo'lmagan sektor muslahkamlandi va yetakchi o'rinni egallab, 1991-yilgi 63 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1999 yil sentyabriga kelib qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining 98,4 foizini egalladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida o'tkazilgan islohotlar jarayonini undagi ustuvor vazifalar, yo'nalishlar, amalga oshirilgan iqtisodiy tadbirlarning mohiyatiga ko'ra shartli ravishda besh bosqichga bo'lish mumkin. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi respublika mustaqilligining dastlabki yillaridan (1991 y.) boshlanib, 1997-yilgacha davom etdi. Bu bosqich mamlakatda qishloq xo'jaligini barqarorlashtirishni ta'minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning birlamchi asoslari yaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mamlakatda g'alla mustaqilligiga erishish yo'li belgilandi,

buning natijasida don ekinlari, birinchi navbatda, bug'doy ekin maydonlari keskin ko'padi. Bu bosqichda sobiq sovxozlar shirkat xo'jaliklariga aylana boshladi. 1991 yilda yirik qishloq xo'jaligi korxonalari a'zolari o'z ulushi va mol-mulki bilan ulardan chiqish huquqiga ega bo'lganligi sababli dastlabki fermer xo'jaliklari (asosan chorvachilik) paydo bo'la boshladi. Fermer xo'jaligining ushbu yangi shaklining huquqiy maqomi 1992-yil iyul oyida qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunda mustahkamlab qo'yildi. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish uchun yer uchastkalarini berish juda ko'plab kriteriyalarni( nomzodlarning moliyaviy imkoniyatlari, ularning qishloqda yashagan vaqti va qishloq xo'jaligidagi ish tajribasi, mavjud texnikalar soni, ma'lumotlilik darajasi va b.) hisobga olgan holda tanlov asosida amalga oshirildi. Jamoa xo'jaliklarini qayta qurish davrida fermer xo'jaliklarini tashkil etish uchun yerlar qayta tashkil etilgan xo'jaliklar yerlaridan ajratildi. 1997 yilning o'rtalariga kelib, bug'doy va paxtadan tashqari barcha turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmalari bekor qilindi. 1998 yilda Yer kodeksi qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich (1998-2002 yillar). Bu bosqich islohotlarning institutsional bazasini, qonunlar va qonunosti meyoriy hujjatlar tizimini shakllantirish hamda islohotlarni amalga oshirishning bosh maqsadini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizm va qishloq xo'jaligidagi islohotlarning huquqiy asosini yaratish bilan tavsiflanadi. Zararli va kam daromadli shirkat xo'jaliklari fermer xo'jaliklariga aylantirish jarayoni boshlandi. Eng muhimi 1998-2000 yillarda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturining qabul qilinishi ham shu davrni qamrab oladi. Natijada, ushbu bosqichda qishloq xo'jaligida tashkil etilgan yangi mulkchilik shakllarining mahsulot yetishtirishdagi ahamiyati ortdi va bu davrda agrar soha mahsuloti 113,3 foizga o'sdi.

Uchinchi bosqich (2003-2007 yillar). 2003 yildan boshlab qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning turli mexanizmlarini amaliyotga joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab

chiqildi. 2006 yil 23 martda Prezidentning "Shaxsiy tomorqalar, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-son qarori qabul qilindi. Qaror chorvachilik, ayniqsa, qoramol boqish bilan shug'ullanuvchi dehqon va fermer xo'jaliklari sonini ko'paytirish, aholi bandligi muammolarini hal etish uchun huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan edi. Tijorat banklari va Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla qo'mitalari) kafilligida sho'ba, dehqon va fermer xo'jaliklari uchun chorva mollari sotib olish uchun fuqarolarga imtiyozli maqsadli kreditlar ajratish tartibi soddalashtirildi. Natijada, 2006-2007 yillarda chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida chorva mollari soni 13,7 ming boshdan 16 ming boshga, 2007 yilda fermer xo'jaliklarida chorva mollari soni 223 ming boshga (35 foizga), 2008 yilda 135 ming boshga (35 foiz) ko'paydi. Boshqa yillarda yillik o'sish o'rtacha 69 ming boshni tashkil etdi.

To'rtinchi bosqich, 2008-2014 yillar. 2008 va 2009 yilgacha fermer xo'jaliklarini qayta qurishda fermer xo'jaliklari ko'pincha tarqoq dalalardan iborat bo'lib, ko'pincha bir-biridan juda uzoqda joylashgan degan umumiy fikrni hisobga olmadi. Tez rivojlanayotgan fermer xo'jaliklarining resurs va xizmat ko'rsatish talablari tez orada bir qator muammolarni keltirib chiqardi, masalan, yirik fermer xo'jaliklari uchun mo'ljallangan sug'orish infratuzilmasi mos kelmaydigan darajada edi, mavjud sug'orish tizimini mayda dehqonchilikka moslashtirish uchun qayta qurish qimmat jarayon bo'lardi.

Beshinchi bosqich 2015 yildan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqich fermer xo'jaliklarining yangicha bo'linishi va ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. 2015-yil 29-dekabrda Prezidentning "2016-2020-yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-son qarori qabul qilindi[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 9-oktabrdagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yerlari egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi UPP-5199-son Farmoniga muvofiq; qishloq xo'jaligi ekinmaydonlaridan samarali foydalanish» barcha fermer xo'jaliklari ko'p tarmoqli bo'lishi kerak. Farmonda tayyor mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, sotish va xizmatlar ko'rsatish kabi ko'p tarmoqli faoliyat turlari nazarda tutilgan. Yangi islohotning e'lon qilingan maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirishdan iborat. Farmonga ko'ra, fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari berish hajmi va tartibi o'zgartirildi. Shunday qilib, nasldor chorvachilik fermer xo'jaliklariga Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda har bir shartli chorva boshiga kamida 0,5 gektar, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 0,6 gektar sug'oriladigan yerlar ajratildi[3].



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-sentabr, juma kuni qishloq xo'jaligini 2020—2030-yillarda rivojlantirishning ustuvor

yoʻnalishlariga bagʻishlangan yigʻilish oʻtkazdi. Bu haqida Prezident matbuot xizmatida xabar berdi. “Mamlakat qishloq xoʻjaligi boʻyicha ulkan salohiyatga ega. Bozorlarimiz toʻkin, xalqimiz rizqi moʻl-koʻl boʻlishidan tortib eksportdan qoʻshimcha daromad topishgacha boʻlgan juda koʻp masalalar shu soha bilan bogʻliq. Keyingi yillarda qishloq xoʻjaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish boʻyicha qator ishlar amalga oshirildi.

Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga koʻpaytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va gʻallachilik hashar emas, chinakam daromad manbaiga aylandi. Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-toʻqimachilik klasteri tashkil etildi”, — deyiladi xabarda. Prezident faqat bugunni emas, balki ertangi kuni ham oʻylab, uzoqni koʻzlab islohotlarni yangi bosqichga koʻtarish vazifasini qoʻymoqda. Shu maqsadda qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020—2030-yillarga moʻljallangan strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu iqtisodiyotning asosiy oʻsish nuqtasi, “drayveri” boʻladi. Ming-minglab ish joylari yaratiladi, odamlarning daromadi oshadi. Yigʻilishda mazkur strategiyani amalga oshirish uchun zarur boʻlgan muhim vazifalar belgilab berildi.

Bunda, avvalo, qishloq xoʻjaligi yerlarining aniq hisobini yuritish, ulardan foydalanishni takomillashtirish lozimligi qayd etildi. Shundan kelib chiqib, “Yergeodezkadastr” qoʻmitasiga 2021-yil oxirigacha respublikaning barcha hududlarida yerni hisobga olish ishlarini yakunlash, yer hisobini yuritish boʻyicha yagona elektron bazani yaratish topshirildi. Qayd etilganidek, unumdorlikni oshirishga, koʻp yillik mevalar yetishtirishga intilishi uchun yer egalarining ertangi kunga toʻla ishonchi boʻlishi kerak. Shu bois, prezident qonunchilikni qayta koʻrib chiqib, yer ajratishning shaffof tizimi va yerga boʻlgan huquqning kafolatlanishini taʼminlash zarurligini taʼkidladi[4].

Jahon suv resurslari instituti taxminlariga koʻra, 2040-yilga borib Oʻzbekiston suv oʻta tanqis boʻlgan 33 mamlakat qatoridan joy olishi mumkin. Shu bois davlat rahbari bu masalaga alohida eʼtibor qaratib, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va uning hisobini yuritish, har yili 200 ming

gektar maydonda suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilib borish zarurligini ta'kidladi. Ushbu yo'nalishlar ishlab chiqilayotgan strategiyada o'z aksini topishi kerakligi aytili", — deyiladi xabarda. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilinar ekan, budjet mablag'larining asosiy qismini yerlarning unumdorligini oshirish, suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish, ilm-fanni rivojlantirishga sarflash lozimligi ko'rsatib o'tildi. Sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilib, bu boradagi jahon tajribasi tahlil qilindi.

Masalan, Turkiyada 1 gektar yerdan 2 ming dollarlik, Misrda 8 ming dollarlik, Isroilda 12 ming dollarlik mahsulot yetishtiriladi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 300 dollardan oshmayapti. Doim bir xil standartdagi tovar yetkazib berish yo'lga qo'yilmagani sababli mahsulotlar tashqi bozorda raqobatlasha olmayapti. Yig'ilishda mutasaddilarga mahsulotlarni Yevropa Ittifoqi, Sharqiy Osiyo va arab mamlakatlari standartlari asosida sertifikatlash tizimini joriy etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Bu borada tomorqa xo'jaliklari ham katta rezerv ekani, "bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida joylarda logistika xizmati va kooperatsiya tizimini keng joriy qilish lozimligi qayd etildi[5].



**Toshkent davlat agrar universiteti** -qishloq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan yirik oliy o'quv yurti. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tarkibida.Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan. 1930-yilda O'rta Osiyo universitetining qishloq xo'jaligi fakulteti negizida Orta Osiyo qishloq xo'jaligi instituti tashkil etildi, bu institut 1934—91-yillarda Toshkent qishloq xo'jaligi instituti nomi bilan faoliyat ko'rsatdi, 1991-yilning aprelda Toshkent davlat agrar universitetiga aylantirildi.

Universitetda (2004): agronomiya, agrokimyo va tuproqshunoslik; o'simliklar himoyasi; mevasabzavotchilik va o'rmon xo'jaligi; zoomuhandislik va ipakchilik; iqtisodiyot; buxgalteriya hisobi va audit; kasbiy ta'lim; sirtqi ta'lim; magistratura mutaxassisliklari, 35 kafedra faoliyat ko'rsatadi, muzey (1980), ilmiy kutubxona (1 mln. dan ortiq asar), qishloq xo'jaligi. kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash markazi bor. 32 ga haydaladigan yer va 1 ga



issiqxona maydoni bo'lgan o'quv-tajriba xo'jaligi, Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanida 2480 ga haydaladigan yer, 4 ga issiqxona maydoni, chorvachilik fermasi va boshqa ishlab chiqarish obyektlari bo'lgan o'quv-tajriba xo'jaligi; agroekologiya ilmiy markazi, biotexnologiya laboratoriya, etnomofaglarni ko'paytirish bo'yicha biolaboratoriya, fungimarkaz kabi ilmiy ishlab chiqarish., tadbirkorlik ilmiy bo'linmalar faoliyat ko'rsatadi. 1992-yilda bakalavriat bosqichida mutaxassislar tayyorlaydigan Nukus filiali tashkil etilgan. 2003/04 o'quv yilida 5321 talaba, shu jumladan, kunduzgbo'limda 3047, sirtqi bo'limda 2040 bakalavr, 236 magistr talabalar o'qidi, 457 professor-o'qituvchi, shu jumladan, 53 fan doktori va 166 fan nomzodi ishladi[6].

Toshkent davlat universitetida juda ko'p iste'dodli talabalar bor . Ular hatto muhtaram Prezidentimizning shaxsan qo'llaridan mukofotlarni qo'lga kiritishgan.Bu yoshlarimizdan ba'zilari haqida aytib o'tsak , Anvarbekova Charos, Umurzoqov O'rolbek, Minbayeva Aygul va yana ko'plab yoshlar shular jumlasidandir.





Toshkent davlat agrar universitetini fan va innovatsiyalar bo'yicha rivojlanayotganligi quvonarli hol. Kuni kecha bo'lib o'tgan Respublika tanlovi "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovida 11 nafar talaba yoshlar Respublika bosqichiga chiqib 6 nafar talaba g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu juda ham quvonarli albatta.

Bundan tashqari jonkuyar o'qituvchilari borligi sababli sport yo'nalishlarida talaba yoshlar ko'plab muvaffaqiyatga erishib kelmoqdalar.



### XULOSA

Xulosa qilib aytar ekanmiz muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganlaridek qishloq xo'jaligi rivojlanishi xalqimiz, yurtimiz iqtisodiyoti rivojlanishining yuqori bosqichiga erishishi demakdir. Shunday qilib, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklarining bozor iqtisodiyoti sharoitida

va sog'lom raqobat asosida rivojlanishi uchun islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va mustahkamhuquqiy-meyoriy baza yaratildi hamda asosiy yo'nalishlar belgilab olindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Veterinariya to'g'risida"gi qonunlar, respublika Prezidentining bir qator qaror, farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, fermer xo'jaliklari faoliyatining mulkiy daxlsizligi va tadbirkorlik erkinligini ta'minlashga hamda qo'llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshirishga, dehqonchilik bilan birga chorvachilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda muassasada ya'ni qishloq xo'jaligi universitetida esa xalqaro munosabatlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan 50 ga yaqin shartnoma va memorandumlar imzolangan. Ularga asosan universitetning talabalari Germaniya, Rossiya singari davlatlarda ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tab kelishmoqda, professor-o'qituvchilar dunyoning turli davlatlariga halqaro loyihalar doirasida o'quv kurslari va seminarlarda ishtirok etib kelishmoqda.

### **MA'LUMOTNOMALAR**

1. <https://www.amerikaovozi.com>

2. <https://daryo.uz>

3. <https://www.stat.uz>

4. <https://cyberleninka.ru>

5. <https://www.stat.uz>

6. Axdoadaliyev Y.I. Yer resurslaridan foydalanish glakeologiyasi . – Toshkent Fan va texnologiya , 2014.-340. -B